

## Uzbek Classical & Traditional Musics

### "Qurbon O'lam"

Visit ["Qurbon O'lam"](#) on [MotoLyrics.com](http://MotoLyrics.com)

Kel-keley, mohiliqo, husningga qurbon o'lam,  
Xalqayi zulfi parishoningga qurbon o'lam,  
Chashmi masti labi xandoningga qurbon o'lam,  
Oftobi ruyi toboningga qurbon o'lam,  
Qadi navrastayi larzoningga qurbon o'lam,  
Man sana qurbon o'lam.

Ikki qoshing qalamu, ikki ko'zing chashamai nur,  
Barq urib oyinadek siynayi sofing ko'rinur,  
Bu sani dardu firoqing mani jonimga huzur,  
Yo'q nazokat ichida sen kabi durdonayi dur,  
Qaddi shamshodi xiromoningga qurbon o'lam,  
Man sana qurbon o'lam.

Tishlaring gavharu har bir suxaning obi hayot,  
G'unchadek ikki labingdin to'kilur qandu novot,  
Yozilur sahfayi devoningga yuz ming hasanot,  
Gul yuzingdan manga bir bo'sa berib ayla zakot,  
Man sani ro'yi gulistoningga qurbon o'lam,  
Man sana qurbon o'lam.

Qo'llaring panjayi xurshid, beling g'unchamiyon,  
Ko'ylak ichra badaning sof erur obiravon,  
Rahm qil, kel, mani og'ushima ey, ofatijon...

Man sanga banda bo'lib, hatto g'uloming bo'loyin,  
Barq urib qoshingda parvonasifat o'rgiloyin,  
Manga zulm aylama, o'shal yuzing ko'royin,  
Kulbayi hokingga siynamni qo'yib jon beroyin,  
Qaddi bastingga tasadduq bu Fuzuliy demakim,  
Qaddi shamshodi xiromoningga qurbon o'lam,  
Man sana qurbon o'lam,  
Yor sana qurbon o'lam.

